



« LOGISTIKA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIY
BOSHQARUV MEXANIZMLARI »

SHANAZAROVA N.B.

Toshkent davlat transport universiteti, dotsent v.b.

KORGANOVA S.S. f. f.n., dotsent

*M.Auezov nomidagi Janubiy Qozog'iston tadqiqotlar
universiteti. Chimkent, Qozog'istone mail: sevinch_kor@mail.ru*

ABDUKARIMOVA G.B.

Toshkent davlat transport universiteti, katta o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarini bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish, hizmat ko'rsatish sohasidagi o'zgarishlar, xususan logistik xizmatlar ko'rsatish tamoyillari xaqida bayon yetilgan.

Kalit so'zlar: logistik xizmatlar, diversifikatsiya terminal tizimi.

O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarini bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish, hizmat ko'rsatish sohasidagi o'zgarishlar hamda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni izchil isloh yetish va liberallashtirish, real sektor korxonalarini innovatsion boshqarish va modernizatsiya qilish jarayonlari yildan-yilga jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Mazkur muhim vositalardan biri logistika markazlari hisoblanadi. Chunki bugungi kunda ko'plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida yetakchi o'rin tutadigan mamlakatlar tajribasi ko'rsatmoqdaki, raqobatdoshlikka yerishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda, iqtisodiyotni izchil isloh yetish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat yuritayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish, turli infratuzilmalarni shakllantirish hisobidan amalga oshirilishi mumkin.



Logistik tizim sotish tashkilotlarida tayyor mahsulotni saqlash va ularni iste'molchilarga yetkazib berishni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqichda tizimga ishlab chiqarish sohasi ham jalb yetiladi. Bu hamda logistika mahsulot ishlab chiqaruvchidagi zahiralalar va ishlab chiqarishning o'ziga texnologik xususiyatlarini ham qamrab oladi. Yanada rivojlanganroq logistik tizimlar o'ziga ta'minot sohasini ham qo'shib oladi. Shu narsa ravshanki, logistik tizimlarda yerishiluvchi texnologik muvofiqlashtirish, boshqaruv jarayonlarini muvofiqlashtirishga asoslanadi. 89 Tijorat logistikasi mazmunan moddiy oqimlar harakati va xomashyoni olishdan boshlab, to tayyor mahsulotni iste'mol qilishgacha bo'lgan bosqichlarni boshqarishni muvofiqlashtirishdan iborat. Bunday kelishuvli bog'lanishga o'zaro hamkorlik qiluvchi tomonlarning bir-birlariga ma'lum bir yon berishlari natijasida yerishiladi, bunga yerishish yesa zarur bo'lgan tashkiliy shart-sharoitlarni yaratmay turib mumkin yemas

Logistik tizimlarning rivojlanishi tajribasi ko'rsatmoqdaki, odatda transport ularning strukturasida hal qiluvchi o'rinda turadi. Bir tomondan, bu transport tashkilotlariga o'z faoliyat doirasini kengaytirishga va transport xizmatlari bozorida mustahkam o'rnatish, ikkinchi tomonda, sanoat korxonalarini ularga xos bo'lmagan faoliyatlardan ozod bo'lishlariga imkoniyat yaratiladi. Bunda korxonalarning xarajatlari kamayadi va u butun kuchlarni ularning asosiy bozorlariga qaratishga imkoniyat vujudga keladi. Terminal tizimining umumiy tamoyillari va rivojlanishining asosiy istiqbollari aniqlashda yuqorida aytib o'tilgan yondashuvlar nuqtai nazaridan uning kengayib borishini ko'zda tutishi darkor.

Bunday kengayish imkoniyati quyidagi holatlardan kelib chiqadi. Terminal tarmog'i rivojlanib borgan sari hal yetilishi mumkin bo'lgan muammolar guruhi ham ko'p jihatdan transport bog'lamlari bilan bog'liq. Yuk yegalarining yetib kelish joylarida saqlashga majbur qiluvchi holat, shaharda omborxona maydonlarining yetishmovchiligidir. Shaharda yer resurslarining yetishmovchiligi shaharga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lmagan omborxonalarni shahardan tashqariga chiqarish zaruratini vujudga keltiradi. Omborxonalar xo'jaligi muammosining bosh (asosiy) yechimi, shahar atrofida yuqori quvvatga yega transport – omborxona terminal



komplekslarini yaratish bilan bog'liq. Bu, o'z navbatida, shaharning transport bog'lamlari faoliyatidagi tig'izlikni kamaytiradi va xo'jalik kompleksi ishini ratsionallashtiradi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, logistik yondashuv rivojlanishidagi asosiy to'siqlardan biri tovarlar harakat tizimi kontragentlarining manfaatlarini muvofiqlashtirish va transport – taqsimlash jarayonini boshqarishni integratsiyalash uchun zarur tashkiliy shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Bu qiyinchiliklarni yengib o'tish uchun hozirgi paytda bozor munosabatlariga o'tish natijasida qulay sharoitlar yaratilgan. Tashkiliy – iqtisodiy mexanizmning asosi bir tomondan – moddiy oqimlar harakati jarayonining barcha ishtirokchilariga mustaqillik va raqobat muhitini ta'minlash, ikkinchi tomondan yesa – iqtisodiy boshqaruv orqali ularni shahar (viloyat)ning manfaatlari bilan mos keluvchi yechimlarga undashdan iborat.

Bunday boshqaruv vositalari (regulyatorlari) qatoriga soliqlar, tariflar, jarima sanksiyalari, kreditlar, investitsiyalar va litsenziyalar kiradi. Iqtisodiy boshqaruv mexanizmining asosiga quyidagi iqtisodiy tamoyillar qo'yilishi kerak:

- hududdagi aholi va xo'jalik komplekslarining yuklarni tashishga bo'lgan obyektiv talabini to'liq qondirish;
- transport yegallari va xizmat ko'rsatiladigan mijozlar iqtisodiy manfaatlarini tengligi;
- tovarlar harakatining pirovard natijasi uchun o'zaro moddiy javobgarlik;
- moddiy oqimlar harakatlanish jarayoni qatnashchilari iqtisodiy ahvolining ishning oxirgi (pirovard) natijasiga bevosita bog'liqligi;
- shartnoma munosabatlari asocida transport vositalarining yegallari bilan xizmat ko'rsatiluvchi mijozlar hamkorligining teng huquqliligi;
- transportdan foydalanishning maksimal darajada qulayligi, keng doirada xizmatlar ko'rsatish, mijozlarni ularga xos bo'lmagan funksiyalardan ozod qilish.

Ko'rib chiqilgan logistik konsepsiyalar asosida o'z ichiga transport, omborxona va yekspeditsiya xizmatlari ko'rsatishni olgan kompleks tizimni yaratish ayniqsa istiqbollidir. Bunday tizimlarning asosi zamonaviy, xalqaro standartlarga javob beruvchi, yuqori darajada mexanizatsiyalashgan, ko'p turdagi maqsadlarga



xizmat qiluvchi va keng xizmat ko'rsatish kompleksiga yega yuklarni to'plovchi va qayta ishlovchi terminal komplekslari bo'lishi kerak. Xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, iqtisodiyot globallashuvi sharoitida samarali logistika markazlarini tashkil yetish va ularning samarali faoliyatini muvofiqlashtirish, tartibga solish muhim ahamiyatga yega bo'lib, u milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish hamda innovatsion iqtisodiyot tuzilmasini shakllantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shanazarova, N. B. (2022). THE IMPORTANCE OF INVESTMENT ACTIVITIES IN THE RAILWAY TRANSPORT NETWORK IN UZBEKISTAN. *Confrencea*, 6(6), 216-217.
2. E.A.Soliev, J.R.Qulmuxamedov, F.R.Mirzaev, O.K.Adilov, X.A.Mirgiyasov, K.M.Nazarov "Transport logistika asoslari" o'quv qo'llanma 2013 y